

MATEMATIKA FANI RIVOJIDA BUYUK ALLOMALARIMIZNING ASARLARI

Ma'mirova Gulchehra G'aybullayevna

Xatirchi tumani 38-maktab

Matematika fani o'qituvchisi

Islamova Gulniso Aliqulovna

Xatirchi tumani 38-maktab

Matematika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada matematika fanining rivojlanish bosqichlari, fanning rivojiga o'z xissasini qo'shgan olimlarning asarlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: fan, ta'lif, rivoj, alloma, asar, amaliyot, taraqqiyot.

Matematikani qadimiy va navqiron fan: «fanlar shohi» deymiz. Ikki yarim ming yildan ko'proq vaqt mobaynida u rivojlanib, taraqqiy etib kelyapti. Xo'sh, matematika rivojining manbalari nimada, u qanday qilib, qaysi yo'llar orqali rivojlanadi? Ma'lumki, amaliyot, kishilar faoliyatidagi turli muammolar matematika oldiga masalalar qo'yadi, matematika bu masalalarni yechish yo'llarini qidiradi, natijada amaliyot qo'ygan masalalardan kelib chiqib yaratilgan matematik nazariyalar vujudga keladi. Bu nazariyalar endi amaliyotga tatbiq qilinadi va qo'yilgan masalalar hal etiladi.

Bu jarayonning ikkita muhim jihatni bor: amaliyot qo'ygan masala hal etildi va matematikaning o'zi ham yangi nazariya bilan boyidi, rivojlandi, taraqqiy etdi, uning tatbiqi imkoniyatlari kengaydi. Umumiyoq o'rta ta'lif maktab o'quvchilari matematikadan DTS asosida bilimlarini egallashlarida buyuk allomalarimiz al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobi, Ahmad Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, G'iyyosiddin al-Koshiy, Umar Xayyom, Nasriddin at-Tusiy, Mirzo Ulug'bek,

Ali Qushchi va boshqa allomalarining matematika rivojiga qo'shgan hissalarini o'rganish jarayonida o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarini oshirish, ularni vatanparvarlik, milliy iftixor tuyg'usida tarbiyalashga e'tibor qaratilgani beziz emas. Bu vazifalarni amalga oshirishda o'quv-biluv jarayonini yanada talkomillashtirishga, yangicha ilmiy-uslubiy yondashuvni va boshqa tadbiriylar choralarni ko'rishga bog'liq bo'ladi. Chunki matematikadan tarixiy ma'lumotlaming singdirilishini sistematik va to'g'ri qo'yilishi fanni yaxshi o'zlashtirilishiga ko'maklashadi va unga nisbatan o'quvchilardagi qiziqishni orttiradi. Matematika o'qituvchisi ona-Vatanimizning juda qadimiy ekanligini, bundan ko'p asrlar oldin diyorimizda fan va madaniyat katta taraqqiyotga ega bo'lganligini, ayniqsa o'rta asrlarda - VII asrdan XV asrgacha Markaziy Osiyoda ko'p sohalar bo'yicha ilmiy yutuqlarga erishilganini o'quvchilarga tushuntirishi lozim. Shu davrlarda Markaziy Osiyoda ko'plab olimlar turli fanlar sohasida, jumladan, matematika va astronomiya sohasidagi kashfiyotlari dunyo tamadduni taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni e'tirof etish muhimdir. Bu ma'lumotlar 80% quvchilarda vatanparvarlik, milliy g'ururni tarkib toptirish, rivojlantirishda, ajdodlarimiz bo'lgan bu olimlarimizga izzat va hurmat qilish hissiyotlarini tarbiyalaydi.

Matematika o'z ichki qonuniyatlari bo'yicha ham turli tushunchalar, nazariyalarni umumlashtiradi, mantiqiy tugallanganlikka erishtiradi, avvalgi tushunchalar, nazariyalarga matematika rivojining hozirgi zamon yutuqlari nuqtai nazaridan qarab, ularni tahlil qildiradi - rivojlantiradi. Bu esa biz yashayotgan olamni chuqur bilishga olib keladi.

Ota-bobolarimiz tomonidan asrlar davomida yaratilgan ilmiy boyliklar, ular tomonidan yaratilgan asarlar xalqimiz, davlatimiz tomonidan asrab-avaylab, saqlanib o'rganilib kelinmoqda. o'sib kelayotgan yosh avlodni mazkur asarlar bilan tanishtirish, ularning dunyoqarashini kengaytiradi, bilim saviyasini oshiradi.

L.Ibodov, A.Abdurahmonov, G'Jalolov, A.Ahmedov, S.Ahmedov
A.Normatov, T.N.QoriNiyoziy, M.Ahadova va boshqa olimlaming keng miqyosdagi ilmiy ishlari va ijobjiy ilmiy natijalari e'tiborga loyiqdир Hozirgi vaqtda respublikamiz olimlari, o'qituvchilari oldida xalqimizmung o'tmish ilmiy merosini o'rganish va bu

sohada qo‘lga kmtilgan juda ko‘p ilmiy tadqiqotlarning natijalarini xalqimizga, ayniqsa yoshlarga yetkazishda juda muhim va sharaflı vazifalar turibdi Matematika darslarida tarixiy ma'lumotlar, qomusiy allomalanmizning asarlarini o‘rganish matematika darslarini insonparvarlashtirishga yordam beradi, deb o‘ylaymiz.

O‘rta osiyolik olimlarning qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan asarlari ro‘yxati:

№	Asarning nomi	Muallifi
1	Hind hisobi haqidagi qisqacha kitob	Al-Xorazmiy
2	Al jabr val Muqobala	Al-Xorazmiy
3	Yer surati haqidagi kitob	Al-Xorazmiy
4	Vatar va sinuslar haqida	Jamshid Koshiy
5	Arifmetika kaliti	Jamshid Koshiy
6	Aylana haqidagi risola	Jamshid Koshiy
7	Risolalar	Umar Xayyom
8	Kitob ul Muhammad (hisob risolasi)	Ali Qushchi
9	Geometrik 9 figuralarning ajoyib xossalari	Farobiy
10	Geometrik yasashlar haqida	Farobiy
11	Hunarmandlar geometriyadan nimalarni bilish zarurligi haqida kitob	Abu Vafo
12	Qonuni Ma’sudiy	Beruniy
13	Kitob at-tafqim	Beruniy
14	Doiradagi vatarlarni, uning ichiga chizilgan sinik chiziqlar yordamida aniklash haqida risola	Beruniy
15	Donishnoma	Abu Ali ibn Sino
16	Taxta va tuproq yordamida arifmktikadan to`plam	Abu Ali ibn Sino

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ahmedov M., Mirzaahmedov M. Mantiqiy fikrlashga o‘rgatish («Matematika» darsligi asosida) // J. Boshlang‘ich ta’lim, 2004, 2-son/7
2. Yuldashev Z.Kh., Ashurova D.N. Innovative-didactic program complex and new formalized model of education. Malaysian Journal of Mathematical Sciences 6(1):, 2012, 97-103 p.
3. Sayidahmedov N. «Yangi pedagogik texnologiyalar». T. «Moliya» 2003 yil
4. <http://library.ziyonet.uz/ru/book/download>